

TELEFON FOYDALIMI YOKI ZARARLI?

Bardiyeva Gulasal Umidbek qizi

UrDU O'zbek filologiyasi fakulteti talabasi

Hozirgi kunga kelib, telefon foydalanuvchilari soni tobora ko'payib bormoqda. Hattoki yoshlarning eng yaqin do'sti ularning sinfdoshi yoki aka-ukalari emas, balki telefoni ekanligining guvohi bo'lamiz. Ayrimlar smartfonlarni foyda yo'lida ishlatayotganlariga qaramasdan, ular ko'pchilikka zarar keltirayotgani ham sir emas, albatta. Xo'sh, hozirgi davrda yoshlar hayotida yoki kundalik hayotimizda faol bo'lgan telefonning qanday zararli taraflari yoki foydali tomonlari bor?

Avvalo, telefonlarning ijobiy taraflariga to'xtalib o'tsak, ilm-fanning tez va oson o'rganilishida yoshlar uchun telefonning o'rni beqiyosdir. Chunki o'smir yoshdagi odamlar undan xohlagan bir fandagi tushunmagan ma'lumotlari yoki bir necha tilda tarjima qilishga qiynalayotgan so'zlarini boshqa tilga o'girishda foydalanadilar, ya'ni telefonlarni kitoblarning tezlashgan va qulay shakli sifatida ishlatmoqdalar. Smartfonlar yaratilmagan yoki ommalashmagan davrlarga nazar tashlasak, yoshlar o'qish uchun ko'plab kitoblarni ko'tarib yurishlari hamda bitta so'zni boshqa tilga tarjima qilish uchun juda ko'p vaqt va energiya talab qilinar edi. Bundan ko'rinadiki, telefonlar biz uchun tezkor yordamchilardir.

Bundan tashqari, insonlar dunyo yangiliklaridan xabardor bo'lib turish, ularni kuzatib borishda ham telefonlardan foydalanmoqda, televizorlarning o'rmini smartfonlar egallayapti. Telefon televizordan shunisi bilan ustunroqki, unda biz o'zimiz xohlagan mavzuda va xohlagan bo'sh vaqtimizda yangiliklarni ko'ra olamiz. Shuningdek, telefon eng oson aloqa vositasidir, ya'ni undan uzoqdagi yaqinlarimizni ko'rib, gaplashib yonimizdagidek his qila olamiz. Tarixda esa bitta xabarni boshqa davlatga yetkazishda yoki kim bilandir xabarlashishda juda ko'p muammolar kelib chiqqanligi va ko'p vaqt talab qilinganligi ma'lum. Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, telefon orqali kichkina

yoshdagi bololarning aqliy tafakkurining o'sishi, tasavvur ko'lamining oshishi uchun foydalanish mumkin, smartfonlarda turli tuman o'yinlar, rangli va rasimli tasvirlarga boy, har xil tillardagi multifilmlarning mavjudligi fikrimizning isbotidir.

Tarozining ikki pallasini bo'lganidek, telefonda ham ikkinchi tomon, ya'ni salbiy ta'sirlar yo'q emas, albatta. Birinchidan, telefon insonlarning sog'ligiga salbiy ta'sir qilishi hammamizga ma'lum. Jumladan, ko'z nurining pasayishi hamda boshqa ko'z kasalliklarining aksariyati telefonda me'yorida ortiq ko'p foydalanishning hosilasidir. Shu bilan birga, smartfonlar faqat tanamiz sog'ligiga ta'sir o'tkazib qolmasdan, ongimiz "kasallanishi"ga ham sabab bo'lmoqda. Shuningdek, telefonning yana bir salbiy tarafi sifatida uni o'g'ri deya ta'riflash mumkin, ya'ni vaqt o'g'risi. Ko'pchilik insonlar ijtimoiy tarmoqlarda o'z vaqtlarini bo'lar-bo'lmas narsalarni tomosha qilishga sarflashayotgani natijasida unumli o'tkazishi yoki muvaffaqiyatli imkoniyatlarni egallashlari mumkin bo'lgan qimmatli daqiqalarini isrof qilmoqdalar.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash joizki, telefonda me'yorida va to'g'ri foydalanish orqali uni ijobiy baholash mumkin. Chunki har narsaning yaxshi va yomon taraflari bo'ladi, asosiy masala esa qaysi birini amalda qo'llashimizdir. Bu esa bizning o'zimizga bog'liq, jonsiz narsa bo'lgan telefon o'zimiz xohlamasak bizga salbiy ta'sir o'tkaza olmaydi.